# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

1931
TDIU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 502 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**

**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**

**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning oʻrni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant
Qishloq xoʻjaligida sugʻorish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yoʻllari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent
Yangi Oʻzbekiston sharoitida oʻsimliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi
“Yashil iqtisodiyot”da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar oʻgʻli,** katta oʻqituvchi
Yoqilgʻi-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini taʼminlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam oʻgʻli,** mustaqil izlanuvchi
Togʻli hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil oʻgʻli,** tayanch doktorant
Taʼlim turizmining nazariy asoslari va Oʻzbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira Oʻktamovna,** tayanch doktorant
Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Poʻlatov Maʼmurjon Murodjon oʻgʻli,** tayanch doktorant
Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.
Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD
Turizmni rivojlantirishda “Tourism 4.0” konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulugʻbekovna,** mustaqil tadqiqotchi
Davlat tomonidan qishloq xoʻjaligini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid oʻgʻli,** magistrant
Перспективные направления “Зелёной химии” для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**
Oʻzbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr
Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant
Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD
Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant
Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.
Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon oʻgʻli,** mustaqil tadqiqotchi
Oʻzbekistonda toʻlov tizimining raqamli transformatsiyasining oʻziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normoʻminovna,** oʻqituvchi
Tijorat banki xizmatlarida taʼlim kreditining oʻrni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi
Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi
Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qoʻllab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD
Mulk iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta oʻqituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**
Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent
Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent
Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo'rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)
Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD
Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor
Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Barqaror iqtisodiy o'sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta'siri ........ 170
**Nabiyev Ulug'bek Mirodiljon o'g'li,** tayanch doktorant
The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD
Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi**
Jamg'armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra'no Abdullayevna,** i. f. n., dots.
Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o'rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o'g'li,** mustaqil izlanuvchi
Xo'jalik yurituvchi subyektlar to'lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li,** dekan o'rinbosari
Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant
Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o'rni ........ 206
**Aliyev Ma'ruf Komiljon o'g'li,** mustaqil izlanuvchisi
Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса
Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti
Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta'siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor
O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o'qituvchisi
Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti
Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi
Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi
Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**
Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ... 263
**G‘aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.
Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ... 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD
Soliq ma’muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo‘llari ... 272
**Ibragimov Bobupshoh Bohodir o‘g‘li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)
Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ... 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi
O‘zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ... 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant
Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ... 288
**Mamanazarova Nasiba Jo‘rayevna,** kafedra doktoranti
Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ... 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi
Финансирование акционерных общества через рынок капитала ... 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра
Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ... 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь
Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ... 307
**Назарова Гузал Баходировна**
Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ... 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi
Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ... 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.
Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ... 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса
O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ... 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ... 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD
Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ... 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**
Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ... 349
**To‘rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi
О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ... 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.
Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ... 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой
Ko‘chmas mulkni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlari ... 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti
Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo‘nalishlari ... 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.
Oliy ta’lim muassasalarida byudjet mablag‘laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ... 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.
Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi
Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti
Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант
Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti
Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)
Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**
Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант
Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor
Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi
Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi
Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**
Daromadlarni qayta taqsimlashda "tashabbusli byudjet" tizimini qo'llashning zamonaviy modellari va ulardan samarali foydalanish yo'llari ........ 464
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan ........ 472
**Tulkin Imomqulov,** PhD Associate Professor
O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish bosqichlari ........ 478
**Karimova Shirin Zoxid qizi,** tayanch doktorant
O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining statistik tahlili ........ 483
**Saodat Toshaliyeva Toxirova,** PhD
Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 490
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD
Tijorat banklari kreditlari hajimining barqaror o'sishini ta'minlash ........ 497
**J. Y. Isakov,** i.f.d., prof.

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS



# O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Karimova Shirin Zoxid qizi**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda elektron tijoratning o‘rni va ahamiyati, uning rivojlanish bosqichlari, kelajakda rivojlanish imkoniyatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, uning imkoniyatlarini baholash va shu orqali rivojlanish istiqbollarini belgilash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, elektron bozor, elektron pul, to‘lov tizimlari, online do‘konlar, Online bank xizmatlari, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article presents opinions on the role and importance of e-commerce in our country, its development stages, and future development opportunities. The evaluation of its possibilities and thus the definition of development prospects are highlighted.

Key words: Electronic commerce, electronic market, electronic money, payment systems, online stores, online banking services, digitization, digital transformation.

Аннотация: В данной статье представлены мнения о роли и значении электронной коммерции в нашей стране, этапах ее развития и возможностях дальнейшего развития. Также выделена оценка ее возможностей и определение перспектив развития.

Ключевые слова: Электронная коммерция, электронный рынок, электронные деньги, платежные системы, интернет-магазины, онлайн-банковские услуги, цифровизация, цифровая трансформация.

## KIRISH

Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko‘tarilishi jarayonida barcha sohalarda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Axborot texnologiyalarining rijojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimilari ham yangi bosqichga o‘tdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 14-maydagi “Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3724-son Farmonida “Elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish ilgari surildi.

Shuningdek, mazkur Farmonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda, shu jumladan, elektron tijoratni rivojlantirishda muayyan natijalarga erishish imkonini bergani qayd etildi.

Shunga qaramay, mamlakatda elektron tijoratning to‘laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to‘siq bo‘layotgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan:

*birinchidan,* elektron tijorat sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning amaldagi tizimi soha taraqqiyotining jadal sur’atlardagi o‘zgarishlariga mos kelmaydi va o‘z navbatida aholi keng qatlami va tadbirkorlik subyektlari uchun elektron tijoratdan foydalanish imkonini ta’minlamaydi;

*ikkinchidan,* mahalliy tadbirkorlik subyektlariga tashqi bozorlarda to‘liq raqobatlashish, shuningdek, xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermayotgan elektron tijorat orqali tovarlar (xizmatlar)ni eksport qilishning eskirgan byurokratik to‘siqlari saqlanib qolmoqda;

*uchinchidan,* elektron tijoratni rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish jarayoni lozim darajada yo‘lga qo‘yilmagan, bu esa iqtisodiyotni raqamlashtirish va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining to‘xtab turishiga olib kelmoqda;

*to‘rtinchidan,* mahalliy to‘lov tizimlarining mashhur xorijiy analoglari bilan integratsiyasi yo‘qligi, mamlakat tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat sohasidagi yetakchi xorijiy tashkilotlar bilan to‘liq xalqaro hamkorlikda ishlashlariga, shuningdek, mahalliy bozorning eksport salohiyati va raqobatbardoshligiga ta’sir qilmoqda;

*beshinchidan,* elektron tijorat imkoniyatlari va afzalliklarini, jumladan, tovarlar (xizmatlar) uchun, ayniqsa, joylarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa xufyona iqtisodiyot hajmining oshishiga va davlat byudjetiga soliq tushumlarining kamayishiga olib kelmoqda;

*oltinchidan,* amaldagi soliqqa tortish tizimi elektron tijorat sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, jumladan, axborot vositachilari faoliyatini kengaytirishni rag'batlantirmaydi, bu esa Internet tarmog'i orqali mahsulotlarni xufyona ayirboshlash hajmi oshishiga olib kelmoqda, shuningdek, ushbu sohaga investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni cheklamoqda[1].

Mamlakatda elektron tijoratni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmatlar)ni Internet tarmog'i orqali realizatsiya qilish uchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy qilish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari mahsulotlarini eksport qilish geografiyasini kengaytirish va hajmini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Demak, mamlakatimizda barcha sohalarda raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadal amalga oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiy qudratini mustahkamlash, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini munosib turish vazifalari ham belgilangan. Shu yo'sinda elektron tijorat tushunchasiga oydinlik kiritib olamiz.

Elektron tijorat (e-tijorat, ingl tilida "e-commerce") – bu internet texnologiyalari orqali savdo-sotiq amaliyotlarini tashkil etish. www.statista.com sayti ma'lumotlari ko'ra 2022-yilda dunyo bo'ylab eng ko'p tashrif buyurilgan va onlayn chakana savdo qilingan veb-saytlar ro'yhati keltirilgan.




1-rasm: 2022-yilda dunyo bo'ylab eng ko'p tashrif buyurilgan onlayn chakana veb-saytlar[2]

1-rasmda ko'rinib turibdiki elektron tijoratda hozirgi kunda dunyo bo'yicha eng katta internet do'konlari amazon, ebay, aliexpress hisoblananadi.

Elektron tijorat (e-tijorat) O'zbekistonda yanada rivojlanayotgan, bu esa shaxsiy va tijorat faoliyatining barcha aspektlarini o'zgartirayotgan. O'zbekistonda e-tijoratning rivojlanish bosqichlari quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

**Boshlang'ich bosqich** (2000-yillardan 2010-yillar ortalarigacha): Internetdan foydalanish darajasi yuqori bo'lmaganligi va qonuniy asos bo'lmaganligi tufayli, e-tijoratning rivojlanishi cheklangan edi. Bu davrda bizneslar va xalqaro tijorat korxonalarining kichik bir qismi internet orqali xizmatlarini taqdim etishni boshlagan.

**O'sish bosqichi** (2010-yillardan 2016-yillar ortalarigacha): Bu davrda mamalaktimizda internet tarmoqlari optik tolaga bosqichma-bosqich o'tishi, abonentlari soni o'sishi, Internet xizmatlarini taqdim etuvchi provay-

1 https://lex.uz/docs/-3744594?ONDATE=28.09.2020#-3748339
2 https://www.statista.com/statistics/274255/market-share-of-the-leading-retailers-in-us-e-commerce/

derlar soni koʻpayishi va texnologiyalarining rivojlanishi, Oʻzbekistonda e-tijoratni yanada rivojlanishiga olib kelgan.

**Tezkor oʻsish bosqich** (2016-yildan hozirgacha): Oʻzbekistonning iqtisodiy islohotlari, shu jumladan pul oʻtkazmalari va bank tizimlari sohasidagi islohotlar e-tijoratning tezkor oʻsishiga olib keldi. Elektron toʻlovlar, mobil bank, e-doʻkonlar kabi yangi texnologiyalar keng tarqalgan.

**Kelajakdagi bosqichlar:** E-tijoratning kelajakdagi rivojlanish bosqichlari Oʻzbekistonning texnologik taraqqiyoti, qonuniy muhit, iqtisodiy sharoitlar va boshqa omillarga bogʻliq. Kelajakda, IoT, AI, Big data kabi yangi texnologiyalar e-tijoratning rivojlanishini ta'sir qilishi kutilmoqda.

Jahon hamjamiyatining koʻzlangan rivojlanish va farovonlikka erishish uchun axborot texnologiyalariga (AT) boʻlgan ehtiyoji katta sur'atlar bilan oshib bormoqda. Iqtisodiy oʻsishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanish axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketagani natijasi ham hisoblanadi. Dunyo tajribasi shuni koʻrsatadiki, erkin axborot oqimining ta'minlanishi bozor iqtisodiyotiga oʻtishni tezlashtiradi va sotsial farovonlikni oshirishga zamin yaratadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham oʻz aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda iqtisodiyotda, ayniqsa, zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qoʻllanishi yotadi. Oʻzbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma'lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, internet marketing tizimlari, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. Oʻzbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma'lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud boʻlgan holatdagina sodir boʻladi.

Oʻzbekiston iqtisodiyotining ham bosqichma-bosqich rivojlanishi natijasida biznes faoliyatini yuritishning yangi prinsiplari, ayniqsa, elektron tijoratning ahamiyati juda oshdi.Bugungi kunga kelib, har bir internet foydalanuvchisi elektron tijorat soʻzining ma'nosini tushunishga harakat qilib koʻrgan. Hali oʻzining uzoq tarixini qurishga ham ulgurmagan bunday faoliyat bilan bogʻliq AQSh bozorlarida yiliga oʻrtacha 1,5–2 trln. AQSh dollari miqdorida mablagʻlar aylanadi.

"Elektron tijorat" termini EDI (Elektronic Data Interchange – ma'lumotlarni elektron almashish), elektron pochta, internet, intranet (kompaniya ichida axborot almashish) va ekstranet (tashqi dunyo bilan axborot almashish) kabi texnologiyalarni oʻz ichiga oladi. Oʻz navbatida, Elektron tijorat tizimini uch sinfga boʻlish mumkin:

- Chakana savdoni tashkil qilishboʻyicha (biznes-iste'molchi, B2C).
- Biznes hamkor bilan aloqlar oʻrnatish (biznes-biznes, B2B).
- Iste'molchilar oʻrtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C).

Elektron tijorat kundan kunga tovar va xizmatlar assortimentini oshira boshlagan sari alohida shaxslarni, korxonalarni, sohalarni, davlat muassasalarini va nihoyat davlatlarni bir hamjamiyatga birlashtirib, hamkorlarning oʻzaro ta'siri axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida samarali va toʻsiqlarsiz kelishuvlarga erishishiga imkon berdi.

Elektron tijorat oʻz-oʻzidan mahsulot sotish va xizmat koʻrsatish va yetkazib berish shartnomalarini tuzishda ikkita: moddiy va nomoddiy oqimlar, oqim xizmati bilan bogʻliq: Nomoddiy oqimlar nomoddiy tovarlar (dasturiy ta'minot, bino loyihalari toʻgʻridan toʻgʻri tarmoqli uzatish, moddiy xizmatlar (transport chiptalari, mehmonxonalarda xonalar va h.z. buyurtmasi)ning toʻgʻridan toʻgʻri tarmoqli bajarilishi, hamkorlar (mijozlar, buyurtmachilar, yetkazib beruvchilar, banklar) bilan moliyaviy tarmoqli hisobotlar, moddiy xizmatlarni etkazib berishni axborot va telekommunikatsion qoʻllab-quvvatlash natijasida yuzaga keladi.

Bunday oqimlar u yoki bu virtual tijorat faoliyati natijasida umumiy oqimlarning sezilarli, ba'zida esa juda katta qismini tashkil etadi. Tabiiyki, nomoddiy oqimlarga xizmat koʻrsatishda elektr vositalarning ishlatilishi ish jarayonlarini tezlashtirishga, oqibatda, elektron tijoratning rivojlanishiga olib keladi.

Elektron tijoratning oʻziga xos qulayliklari va ustunliklari mavjud:

- Xalqaro operatsiyalarda axborot olish tezligi oshadi.
- Ishlab chiqarish va sotish davri qisqarad.
- Arzon kommunikatsion vositalardan foydalanish evaziga axborot almashish harajatlari kamayadi.

Korxona axborot texnologiyalarini samarali qo'llash orqali iste'molchilar bilan ochiq munosabat o'rnatish, mahsulot va xizmatlar to'g'risida hamkor va mijozlarni tezkor axborot bilan ta'minlash, sotuvning alternativ yo'llarini, misol uchun tijorat saytlarida elektron do'konlar ochish va yaratish imkoni beradi.

Elektron tijorat asosida yangi savdo-sotiq korxonalarini – elektron do'konlarni yaratmoqda, raqobatning kattaligi sababli ularda yangi turdagi xizmatlar va tovarlar paydo bo'lmoqda. Elektron tijoratning asosiy elementi bo'lib, tovarlarni internetda sotish va aylanishi hisoblanadi. Tovarning aylanishi, uni sotishga mo'ljallangan to'liq kompleks tadbirlar asosida amalga oshirilishi lozim. Ular axborotni ishlab chiqish va ishlatish, reklama tadbirlari va shunga o'xshash tadbirlardir.

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda davlat organlari elektron tijoratni rivojlantirishda, dunyo tajribasida keng qo'llanilgan quyidagi prinsiplarga amal qilishmoqda.

- Elektron tijoratni rivojlantirishda korpoorativ sektor faol rol o'ynashi lozim.
- Elektron tijoratga nisbatan, davlat organlari tomonidan asoslanmagan turli cheklovlar qo'yilishiga yo'l qo'yilmaslik lozim.
- Davlat hokimiyati elektron tijorat jarayoniga, ushbu soha subyektlarini qo'llab-quvvatlash va huquq bazasini takomillashtirish maqsadida aralishishi mumkin.
- Elektron tijoratni boshqarish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda davlat hokimiyati Inernetning o'ziga xosliklarini inobatga olishi lozim.
- Elektron tijorat jarayoni ma'muriy-hududiy bo'linish va davlat chegaralariga bog'liq bo'lmagan ravishda, global masshtabda sodir bo'lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda elektrontijoratni rivojlantirish bilan bir qatorda bu sohaning takomillashishiga to'sqinlik qilayotgan bir qancha muammolar ham mavjud. Bu muammolarning tezkor va aniq yechilishi bugungi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan quyidagi yechimini kutayotgan masalalar jahon tajribasida keng tarqalgan bo'lib, ularning to'g'ri hal qilinmasligi oqibatida bu sohada jiddiy inqirozlar vujudga kelishi mumkin.

Zarur infrastrukturaning hali ham yetarli darajada takomillashmagani quyida bir nechta misollar keltiramiz.

*Birinchidan:* Internetning global tarmog'i bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan provayderlar soni cheklangan miqdorda va buning natijasida internet mijozlarga provayder o'rtasida biridan ikkinchisiga tashish orqali yetkazilmoqda, ma'lumki bunday holat xizmat ko'rsatishning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hududlarda ko'rsatilayotgan internet xizmatining sifat ko'rsatkichlari poytaxtdagi holat bilan solishtirganda sezilarli darajada yomon. Ajratilgan ulanish (ADCL modem) uchun yetarli shart-sharoitning yaratilmaganligi natijasida mijozlar to'g'ridan-to'g'ri qo'ng'iroq qilish orqali (Dial-up) ulanishdan foydalanishadi. Bu, o'z navbatida, xizmat sifatining yetarli darajada bo'lmasligiga olib keladi.

*Ikkinchidan:* Internet foydalanuvchilarining miqdori va mobil internet tezligi past holatda, bu holat elektron tijorat bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan yirik bozor yaratish imkonini bermaydi.

*Uchinchidan:* Mavjud internet-do'konlar faoliyatida yetarli professionallik darajasi yetishmaydi. Aloqa va axborotlashtirish agentligi chop etgan ma'lumotlarga ko'ra 01.01.2018-yil holatiga bo'yicha O'zbekistonda 24 ta internet-do'kon faoliyat yuritadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal qilishda asosiy e'tibor beriladigan yo'nalishlar sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

- Elektron tijorat sohasida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirish zarur. Ilmiy ishlar, maqolalar yozish, maxsuslashtirilgan internet-resurlar yaratish, doimiy forum va konferensiyalar tashkil etish, kadrlar tayorlashda elektron tijoratning nafaqat texnik, balki iqtisodiy va huquqiy xususiyatlarini ham inobatga olish, eng asosiy muammolardan biri – malakali kadrlar yetishmovchiligini, oldini oladi.
- Telekommunikatsion xizmatlarni ko'rsatish sohasida raqobatni rivojlantirish. Bu xizmat sifatining oshishiga, narxlar darajasining tushishiga va elektron tijorat uchun ma'lum internet-auditoriyalarining yaratilishiga olib keladi.
- AKT sohasiga investitsiyalarni kiritish uchun qulay huquqiy sharoitning ko'rsatilgan tartibda doimiy mavjud bo'lishini ta'minlash.
- O'z-o'zini boshqarish va tajriba almashish tizimlarini yaratish.
- Axborot texnologiyalarining butun O'zbekiston bo'ylab keng tarqalishini ta'minlash. Nafaqat viloyat markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham axborot texnologiyalarining joriy qilinishi elektron tijorat hajmining sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

- Online banking tizimini butun respublika bo'ylab samarali joriy qilish. Bu ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar uchun o'z tovar va xizmatlari bilan internet tarmog'i orqali erkin savdo qilish imkoniyatini oshiradi. Shu bilan birga, bu bank sohasining boshqa yo'nalishlari bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlarga olib keladi.

Shuni bemalol ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston o'zining yuqori darajali intellektual imkoniyatlari bilan axborot texnologiyalari tamaddunining qirg'og'ida qolib ketmasligi zarur.

Elektron tijoratni rivojlantirish jamiyatimiz uchun quyidagi natijalar beradi:

- Elektron tijoratning rivojlanishi O'zbeksiton mehnat bozori strukturasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori axborot texnologiyalarini sanoatlashtirish minglab yangi ish o'rinlarini yaratadi.
- O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorlashishi, tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayishi va elektron tijorat rivojlanishining bir paytda sodir bo'lishi eksport imkoniyatlarimizning oshishiga olib keladi.
- Elektron tijorat aholi turmush darajasining yaxshilanishini, marketing, menejment kabi sohalarning rivojlanishini ta'minlaydi.

## XULOSA

O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o'sib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchilarimizga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi.

Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha tanlangan va amaldagi yo'ldan to'g'ri borish, kelajakda O'zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O'zbekistonda elektron tijorat bo'yicha mavjud muammolarni hal qilishning to'g'ri yo'li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishimizda o'z aksini topadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Sharifxodjayev U., Xakimov Z. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 271 b.
2. Abduxalilova L. T. Internet marketing. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 265 b.
3. Ergashxodjaeva Sh. J., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2018. – 315 b.
4. Ergashxodjaeva Sh. Dj., Samadov A. N., Alimxodjayeva N. E., Sharipov I. B. Marketing kommunikatsiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 418 b.
5. Gary Armstrong, Philip Kotler, Michael Harker, Ross Bernnan. (2016). Marketing an introduction. England, Paperback: 720 pages, Pearson.

**Internet saytlari:**

1. lex.uz - O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
2. https://www.statista.com/- Statitstik ma'lumotlar portali.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Xondamir Ismoilov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.